



**BO’LAJAK TARIX FANI O’QITUVCHILARINING KASBIY-IJODKORLIK
QOBILIYATINI RAQAMLI TA’LIM TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISHDA O’QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH
SHAKLLARI**

Muallif: Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna¹

Affiliatsiya: O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o’qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1733321>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo’lajak tarix fani o’qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining ahamiyati va ularni o’quv jarayonining turli shakllariga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Maqolada ma’ruza, seminar, amaly, mustaqil, aralash hamda masofaviy ta’lim shakllarining mazmuni, ularning raqamli texnologiyalar bilan uyg’unlashuvi va kasbiy-ijodkorlikni shakllantirishdagi o’rnii tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida aralash (blended learning) ta’limning afzalliklari va u orqali talabalarning mustaqil, tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish yo’llari ko’rsatib o’tilgan. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida tarix o’qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etish uchun metodik asos bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: bo’lajak tarix o’qituvchisi, raqamli ta’lim texnologiyalari, kasbiy-ijodkorlik, aralash ta’lim, seminar, mustaqil ta’lim, ma’ruza, masofaviy o’qitish, kreativlik, pedagogik innovatsiya.

KIRISH

2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar o’quv dasturlari va darsliklarni ilg’or xorijiy tajriba asosida to’la qayta ko’rib chiqib, amalda joriy etish maqsad qilingan [2]. Ushbu strategiyadagi maqsadni amalga oshirish uchun oliy ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ayniqsa interaktiv pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlardan keng foydalaniib, o’quv adabiyotlarning elektron resurslarini yaratish bugungi kun uchun dolzarb masaladir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmonida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha ta’lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o’ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo’llaniladigan zamonaviy dasturidan foydalananishni rivojlantirish vazifasi qo'yildi [3].

Asosiy qism

Zamonaviy raqamli axborot makonida bo’lajak tarix fani o’qituvchilarini tayyorlash jarayoni nafaqat bilim berishga, balki ularning kasbiy-ijodkorlik qibiliyatlarini shakllantirishga ham yo’naltirilishi lozim. Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning innovatsion manbai sifatida qaralib, o’quvchilarning mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlashini, axborotni izlab topish va uni

tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, tarix fanining mazmuni o'tmish va bugunni qiyosiy, tahliliy asosda anglashga undovchi xususiyati sababli, o'quv jarayonida raqamli vositalar asosida ijodiy topshiriqlarni joriy etish orqali o'qituvchi shaxsining intellektual va kasbiy salohiyatini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli ta'lif texnologiyalari vositasida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda ma'ruza, seminar, amaliy, mustaqil ta'lif, aralash ta'lif, masofaviy ta'lif shakllari muhim o'rinn tutadi. Quyidagi jadvalda har bir ta'lif shaklining mazmuni, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi va kasbiy-ijodkorlikka ta'siri yoritilgan:

1-jadval. Raqamli ta'lif texnologiyalari asosida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda ta'lif shakllarining o'rni

Ta'lif shakli	Mazmuni	Raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi	Kasbiy-ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'rni
Ma'ruza	Nazariy bilimlarni tizimli tarzda berishga yo'naltirilgan dars shakli	Interaktiv taqdimotlar (PowerPoint, Prezi, Canva, Genially), video-ma'ruzalar, elektron platformalar, multimedia mahsulotlari	Tanqidiy fikrlash, tarixiy faktlarni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi
Seminar	Muammo asosida bilimni mustaqil tahlil qilish va baham ko'rish	Padlet, Google Jamboard, Miro, forumlar orqali guruhli muhokamalar, Kahoot!, Google form orqali interaktiv testlar bajarish	Mustaqil fikrlash, tarixiy hodisalarni ijodiy talqin qilish qobiliyatini oshiradi
Amaliy mashg'ulot	Nazariy bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgan faol ta'lif shakli	Timeline JS, Canva, Quizlet, virtual muzeylar va xaritalar bilan ishlash	Ijodiy yondashuv, tarixiy materiallar asosida yangi ko'rinishdagi kontent yaratish
Mustaqil ta'lif	Talabaning o'z-o'zini boshqaruvchi tarzda ta'lif olishi	LMS tizimlari, platformalar, video darslar, testlar, portfoliolar	O'zini o'zi rivojlantirish, ijodiy loyihibar ishlash chiqish ko'nikmasi shakllanadi
Aralash ta'lif (Blended learning)	An'anaviy va raqamli ta'limning uyg'unlashgan shakli	An'anaviy darslar, seminar, muhokamalar, videolar, elektron darsliklar, interaktiv testlar, LMS orqali topshiriqlar	Nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni integratsiya qilish, shuningdek, talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi
Masofaviy ta'lif	Internet orqali ta'lif olish	Zoom, Microsoft Teams, YouTube darslar, interaktiv testlar, digital library	Mustaqil ishlash, ijodiy yechim topish, raqamli muhitda pedagogik yondashuvni o'rganish

So'nggi yillarda dunyo oliy o'quv yurtlarida aralash ta'limga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa raqamli texnologiyalar rivojlangan davlatlar AQSh, Yaponiya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarning ta'lif tizimiga aralash o'qitish jarayoni jadallik bilan kirib kelmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarning ish beruvchilari onlayn va aralash o'qitish usulida ta'lif olgan talabalarni ko'proq ishga olishar ekan. Chunki ular nafaqat kompyuter texnologiyalari bilan ishlashni yaxshi bilishar ekan, balki ularda mustaqil shug'ullanish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari kuchli rivojlangan bo'lar ekan. Shu sababli ba'zi AQSh va Yevropa davlatlarida kollej va universitetlarni blended-learning tizimiga o'tkazishga qiziqish tobora ortmoqda. Uning o'ziga xosliklarini quyidagi venn diagrammasi orqali ko'rib chiqamiz.

Aralash ta'lism tushunchasi nisbatan yangi bo'lganligi sababli tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'rif berilgan. Aralash o'qitish haqidagi eng sodda va tushunarli ta'rif Garrison va Vogan tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ularning fikricha aralash ta'lism – bu yuzma-yuz o'tiladigan dars jarayonlari va onlayn ta'lism tajribalarini birlashtirishdir[4]. Boshqacha qilib aytganda onlayn va yuzma-yuz o'qitishni birlastirgan aralash o'rganishdir[5].

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunda ta'lism sohasida hozirgi davrda amalga oshirilgan islohotlar o'z aksini topdi va uzlucksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan oliy ta'lism tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, iste'molchilar talabiga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatilgan. Ushbu Qonunning 16-moddasida masofaviy ta'lism shakli haqida: "Masofaviy ta'lism o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lism oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan" [1] deyiladi.

Masofaviy ta'lism-masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lism oluvchilarga ta'lism xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lism majmuidir [6].

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lism texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalar ta'limning barcha shakllarida — ma'ruza, seminar, amaliy, mustaqil, aralash va masofaviy o'qitishda — samaradorlikni oshiradi, talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va zamonaviy raqamli vositalardan unumli foydalanishga o'rgatadi. Natijada, talabalarda tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash va innovatsion pedagogik kompetensiyalar shakllanib, ular raqamli muhitda samarali ishlay oladigan, kasbiy va ijodiy salohiyati yuqori bo'lgan mutaxassis sifatida yetishib chiqadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lism to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'jallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019, 8 oktabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. D.R.Garrison & D.Vaughan. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelens. John Wiley & Sons 2008.
5. G.Bank & Ch. Graham. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Desegn. Johhn Wiley. 2012.
6. Umarov B. Masofaviy ta'lism va undan foydalanish. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. Volume 1 Issue 4. 01.12.2024.<https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/484/44>